



**POETIK SINTAKSISNING ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA
IFODALANISHI**

Shahnoza Rajabova Aminjonovna

Shahrisabz davlat pedagogika

instituti 2-kurs magistri

E-mail: shahnozar916@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotimizning yorqin vakili bo'lgan Abdulla Oripov she'riyatida poetik sintaksisning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir she'rlaridagi sintaktik birliklarning mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlashdagi roli, poetik fikrni kuchaytirish va obrazlilikni oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: sintaktik qurilish, ellipsis, sintaktik pauza, enjambeman, to'liq gap, kontseptual mazmun, parallel tuzilmalar.

Abdulla Oripov ijodi o'zbek she'riyatida poetik sintaksisning eng yorqin namunalari mujassam bo'lgan badiiy jamlanmalardan biridir. Shoir she'riy nutqda sintaktik birliklardan nafaqat mazmunni yetkazish, balki falsafiy umumlashmalar va ruhiy kechinmalarni ifodalash vositasi sifatida foydalanadi. Abdulla Oripov she'riyatida sintaktik qurilish ko'pincha ichki monolog shaklida, keskin pazalar bilan, parchalangan va to'liqsiz gaplar asosida tashkil etiladi. Bu holat she'rning ichki dramatzimini kuchaytiradi va kitobxonni muallif tafakkuri jarayoniga e'tibor qaratishga bevosita undaydi.

O'zbek she'riyatida Abdulla Oripov ijodi mazmuniy teranligi, falsafiy mushohada, milliy ruh va yuksak badiiy mahorat bilan ajralib turadi. Shoir she'riyatida sintaktik qurilish alohida badiiy-estetik ahamiyat kasb etib, fikrning ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Abdulla Oripov she'rlarida oddiy va murakkab gaplarning o'ziga xos qo'llanilishi, sintaktik variantlilik, gap bo'laklarining joylashuv erkinligi, qisqa va ixcham gaplar orqali chuqur ma'no ifodalash holatlari ko'p uchraydi. Bu esa shoirning individual poetik uslubini belgilovchi muhim belgilar sirasiga kiradi.

Poetik sintaksis she'riy nutqning o'ziga xos sintaktik tuzilishini, gap va gapdan yuqori birliklarning badiiy-estetik funksiyasini o'rganadi. She'r matnida gap tuzilishining ixchamligi, so'z tartibining o'zgarishi, sintaktik takrorlar, ellipsis, inversiya, parallelizm, sintaktik pauza, enjambeman kabi hodisalar poetik maqsadga xizmat qiladi. Shu bois poetik sintaksis masalalarini tadqiq etish badiiy matn mazmunini chuqurroq anglash, muallifning individual uslubini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Poetik sintaksis umumiy sintaksis qonuniyatlariga tayangan holda, she'riy



matnda gap, gap bo‘lamlari va sintaktik konstruksiyalarning badiiy-funksional imkoniyatlarini tadqiq etadi. U faqat grammatik struktura bilan cheklanmay, balki sintaktik shakllarning estetik qiymati, ularning obraz yaratishdagi roli va muallif individual yo‘nalishini ifodalashdagi ahamiyatini ham mushohada etadi.

Poetik sintaksis – bu badiiy, xususan, she‘riy matnda sintaktik birliklarning maqsadli, estetik va ekspressiv tarzda tashkil etilishini o‘rganuvchi lingvistik sohadir. An‘anaviy sintaksisda gapning grammatik to‘g‘riligi va normativligi asosiy mezon hisoblangan bo‘lsa, poetik sintaksisda me‘yordan chekinish, sintaktik erkinlik va individual mualliflik intonatsiyasi markaziy o‘rinda turadi.

She‘riy nutqda gapning to‘liq yoki to‘liqsizligi, so‘z tartibining buzilishi, gap bo‘laklarining tushirilishi yoki takrorlanishi kamchilik emas, balki badiiy maqsadga xizmat qiluvchi usul sifatida baholanadi. Demak, poetik sintaksis me‘yoriy sintaksisga qarama-qarshi hodisa emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi maxsus qatlamdir.

Abdulla Oripov she‘riyatida sintaksis faqat grammatik qurilishdan iborat emas, balki shoirning badiiy tafakkurini, falsafiy dunyoqarashini va milliy ruhni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning qisqa, keskin gaplar bilan ifodalangan falsafiy fikrlari uning lirik kechinmalarini kuchli ta‘sir bilan yetkazadi. Shu bilan birga, murakkab sintaktik tuzilmalari orqali keng mushohada va mantiqiy izchil fikrlarni yuzaga keltiradi.

Shoir she‘rlarida sodda gaplar ko‘pincha mustaqil satr sifatida ajratilib, alohida estetik ahamiyat kasb etadi. Bunday sintaktik minimalizm mazmunning kuchli kontsentratsiyasiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, murakkab sintaktik konstruksiyalar ham Oripov ijodida keng uchraydi, ammo ular hamisha badiiy g‘oyaga bo‘ysundirilgan holda namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripov she‘riyatida sintaktik me‘yor va me‘yordan chekinish masalasi alohida ahamiyatga ega. Shoir sintaktik erkinlik orqali lirik qahramonning ruhiy holatini, falsafiy iztirob va izlanishlarni, ijtimoiy va ma‘naviy muammolarni ifoda etadi. Bu jarayonda sintaktik vositalar shoirning individual uslubini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanadi. Gap tuzilishidagi uzilishlar, pauzalar va takrorlar she‘riy matnning ichki ritmini shakllantirib, mazmun va shakl uyg‘unligini ta‘minlaydi. Shu bois Abdulla Oripov she‘riyati poetik sintaksis nuqtayi nazaridan o‘rganilganda, uning ijodiy tafakkuri va badiiy strategiyasi yanada aniq namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov she‘riyatida to‘liqsiz va elliptik gaplar lirik kechinmalarni ixcham, lekin nihoyatda ta‘sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shoir ko‘pincha fikrni grammatik jihatdan to‘liq bayon qilishdan ongli ravishda voz kechib, o‘quvchini mazmunni o‘zi to‘ldirishga undaydi. Bu holat sintaktik



birlikni faol idrok qila olishga chorlaydi. Natijada sintaktik qurilish hissiy namuna yaratishda leksik vositalardan kam bo'lmagan darajada ahamiyatlidir.

She'riy nutqda sintaktik birliklar faqat emotsiyani emas, balki kontseptual mazmunni ham shakllantiradi. Murakkab sintaktik konstruksiyalar, parallel tuzilmalar, sabab-oqibat munosabatlari shoirning dunyoni idrok etish modelini namoyon qiladi.

Abdulla Oripov she'riyatida sintaktik qurilish ko'pincha falsafiy kontseptlarni ifodalashga xizmat qiladi. Shoir fikrni izchillikda sintaktik bo'laklar orqali rivojlantirib, o'quvchini mantiqiy va falsafiy mushohada jarayoniga olib kiradi. Bu yerda sintaksis tayyor xulosani bermaydi, balki fikrlash jarayonini sahnalashtiradi.

Shu jihatdan sintaktik birliklar Oripov ijodida kontseptual tafakkurning tashqi shakli sifatida qaraladi. Abdulla Oripov she'rlarida sintaktik ritm ko'pincha mazmun ritmi bilan mos keladi. Falsafiy sokinlikni ifodalovchi she'rlarda kengaytirilgan murakkab gaplar ustun bo'lsa, dramatik va keskin ruhdagi she'rlarda qisqa, parchalangan sintaktik birliklar ko'p uchraydi. Abdulla Oripov ijodi o'ziga xos tuzilish va xususiyatga egaki, aynan shu jihati bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oripov A. Umr qisqa, qarz esa katta... // Sharq yulduzi. 1991. – № 4. – B. 154-158.
2. Oripov A. O'kinch va faxr. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1991. 5-aprel.
3. Rahmonova M. Abdulla Oripov she'riyatida badiiy butunlik. Filol.fanlari nomzodi.diss. avtoref. – Toshkent: 1998. – B.27.
4. Oripov A. Niyat ulug' bo'lsa... // Xalq so'zi. 2000 yil 15- aprel.
6. Qo'shjonov M. Kamalakdek serjilo. // Abdulla Oripov. Yillar armoni. –Toshkent: 1984. – B. 22. "Экономика и социум" №2(129)-2 2025 www.iupr.ru
7. Soliyev A. Abdulla Oripovning –Hangoma she'rini o'rganish. // Ma'rifat. 1991.– № 24.